

RESPUBLIKADA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI  
FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI

*Erxanova Karima – Magistratura va kechki  
ta'lim fakulteti 1-bosqich talabasi*

**Annotatsiya :** Ushbu maqolada respublikada maktabgacha ta'lim tizimi tashkilotlari faoliyatini rivojlantirish, ta'lim sifatini oshirish, hududlar o'rtasida ta'limni moliyalashtirishning eng samarali usullari va modellarini shakllantirish haqida

**Kalit so'zlar:** Intellektual mulk, global ta'lim, konsepsiya, uzluksiz ta'lim, moliyalashtirish.

XXI asr "Intellektual mulk" asrida ta'lim taraqqiyoti milliy manfaatlar va jahon miqyosida mamlakatlar iqtisodiyoti raqobatbardosh-ligini ta'minlovchi asosiy vositaga aylanib bormoqda. Zero, har qanday mamlakatda ta'lim tizimi taraqqiyotiga erishida keng ko'lamli sifat o'zgarishlarini ta'minlash jarayonlariga ustuvorlik berilmoqda.

BMTning bolalar jamg'armasi "Global ta'lim imkoniyatlarini moliyalashtirish" bo'yicha xalqaro komissiyasining jahon ta'lim inqirozini hal qilish strategiyasiga muvofiq taxminan 387 million boshlang'ich maktab yoshidagi, 230 million o'rta maktab yoshidagi bolalar matematika bo'yicha minimal bilim darajasiga erisha olmayapti<sup>1</sup>. 2030 yilga borib, past va o'rta daromadli mamlakatlarda 1,4 milliard maktab yoshidagi bolalarning 420 millioni bolalik davridagi eng oddiy ko'nikmalarni o'zlashtira olmaydi<sup>2</sup>.

Mamlakatimizda aholi sonining ortishi hisobiga ta'lim xizmatlarini kengaytirish, ta'lim oluvchilarning bilim-ko'nikma-malakasini shakllantirish orqali ma'lum samaradorlikka erishish maqsad qilib olinganligi sababli, maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari bilan birga moliyaviy mexanizm samaradorligini oshirishni talab etadi.

O'zbekistonda Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlanish konsepsiyasiga muvofiq, maktabgacha ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirish mexanizmi samaradorligini ta'minlash, davlat moliya tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanib, bu orqali ta'limning konstitutsiyaviy kafolatlarini ta'minlash, maktabgacha ta'lim tizimining zamonaviy maqsad va vazifalarini hisobga olgan holda maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirishning shahar va hududiy dasturlarini ishlab chiqish, davlat xalq ta'limini rivojlantirishning optimal byudjet xarajatlarini ta'minlash kabi kabi qator

<sup>1</sup> UNESCO Institute for Statistics.

<sup>2</sup> The International Commission on Financing Global Education Opportunity, The Learning Generation: Investing in Education for a Changing World, The International Commission on Financing Global Education Opportunity, n.d., , accessed 6 August 2019.

maqsad va ustuvor vazifalar belgilangan. Bu borada, moliyalashtirish jarayonida byudjet mablag'laridan foydalanish tizimining asosi sifatida, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining tashkiliy-huquqiy shakllarini kengaytirish, aholining kam ta'minlangan qatlamlari farzandlari uchun sifatli ta'lim olishni ta'minlash, maktabgacha ta'limning ijtimoiy ehtiyojlarini to'liq qamrab olishga yo'naltirishga alohida e'tibor berilgan.

2021-2022 yillarda O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tashkilotlari ko'rsatkichlarining umumiy tarkibida davlat xususiy sheriklikligi sohasidagi Maktabgacha ta'lim tashkilotlari sonini 1166 tadan 1200 taga yetkazish bilan bog'liq vazifalarning qayd etilganligi, maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini qo'llab-quvvatlashda davlat xususiy sheriklik tizimiga alohida e'tibor qaratilayotganligi bilan belgilanadi.

Oilaviy Maktabgacha ta'lim tashkilotlari sonini oshirish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 10 iyundagi "Qamrov darajasi past bo'lgan tumanlarda maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5144-sonli Qaroriga muvofiq, bolalar bog'chasining avtonomligini mustahkamlash, ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarining faoliyatini muvofiqlashtiradi, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni reabilitatsiya qilish va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash<sup>3</sup> bo'yicha zarur chora tadbirlar doirasida amalga oshirib kelinmoqda.

O'z navbatida moliyalashtirish mexanizmining asosiy samaradorlik ko'rsatkichi, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning qamrov darajasi hisoblanib, 2021 yilda bu ko'rsatkich 1608 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, 2022 yilda 1715,3 ming tarbiyalanuvchiga yetkazish rejalashtirilgan<sup>4</sup>.

Maktabgacha ta'lim sohasi uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini bo'lib hisoblanadi. Shu boisdan mutaxassislar bolalarning sog'lom va bilimli, yetuk kadrlar bo'lib voyaga yetishida bog'cha tarbiyasi juda muhim o'rin tutadi. Bugungi kunda respublikada jami 29 ming 420 ta maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyati yo'lga qo'yilgan. 2023 yilda 3-7 yoshli bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi 74,4 foizga, jumladan, 6 yoshli bolalarni maktabgacha tayyorlov tizimi bilan qamrab olish darajasi 92 foizga yetkazildi. O'tgan yillar davomida maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni qo'llab-quvvatlash orqali maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini yanada kengaytirish hamda bolalarning maktabgacha ta'limi bilan kengroq qamrab olinishini ta'minlash masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Xususan, nodavlat sektorini rivojlantirishning zamonaviy mexanizmlari, xususan davlat-xususiy sheriklikning 10 dan ortiq yangi shakllari joriy etildi. Tadbirkorlik

<sup>3</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 10 июндаги "Қамров даражаси паст бўлган туманларда мактабгача таълим ташкилотлари тармоғини кенгайтириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги ПҚ-5144-сонли Қарори

<sup>4</sup> Ўзбекистон Республикаси Мактабгача таълим вазирлиги маълумотлари

sub'ektlariga ularning xohishiga ko'ra, 2018 — 2022 yillarda davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish uchun tuzilgan bitimlarga muvofiq ajratilgan imtiyozli kreditlar bo'yicha imtiyozli davr muddatini 2024 yil 1 oktyabrga qadar uzaytirishga ruxsat etildi. 2023 yilning o'zida yilda davlat-xususiy sheriklik yo'nalishida jami 4 ming 720 ta davlat-xususiy sheriklik loyihalari o'z faoliyatini boshlagan bo'lib, bolalar uchun jami 140 ming 728 ta yangi o'rin, 13 ming 170 ta yangi ishchi o'rni yaratildi.

2026 yilga kelib, 6 yoshli bolalarni 100 foiz maktabgacha tayyorlov tizimi bilan qamrab olish kutilmoqda. Buning uchun esa 7 mingdan ortiq nodavlat muassasalarni qurish, 160 mingdan ko'proq kadrlar malakasini oshirish maqsad qilingan.

Shunday qilib, maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirish shakllari va ularning tuzilmaviy tarkibini hududlar o'rtasidagi muvofiq-ligini ta'minlash orqali maktabgacha ta'limni moliyalashtirish jarayonida maqsadli ko'rsatkichlarga erishish mumkin. Fikrimizcha maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini rivojlan-tirish bilan bog'liq samarali natijadorligini ta'minlashda mamlakatimiz hududlari o'rtasida maktabgacha ta'lim tashkilotlarini mavjud standartlar va modellar orqali qiyosiy tahlillarni amalga oshirish hamda hududlar o'rtasida ta'limni moliyalashtirishning eng samarali usullari va modellarini shakllantirish zarur.